

## EXINATSEYA (ECHINACEA PURPUREA L.MOENCH)NING LABORATORIYA SHAROITIDA URUG' UNUVCHANLIGI

**Qahhorov Ismoiljon Barotali o'g'li**

*Termiz davlat universiteti Tabbiy fanlar fakulteti magistranti  
Email- ismoilqahhorov111@gmail.com Tel:(+998919085012)*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada siz Exinatseya (*Echinacea purpurea* l.Moench) o'simligi urug'larining labaratoriya sharoitida urug' unuvchanligi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lasiz*

**Kalit so'zlar:** *labaratoriya sharoiti, Astraceae oilasi, petri chashkasi, urug' unuvchanligi, termostat, dorivor o'simliklar, dorivorlik xususiyati, immunitet*

**Abstract:** *In this article, you will get general information about the seed germination *Echinacea* (*Echinacea purpurea* l.Moench) seeds in laboratory conditions.*

**Key words:** *laboratory conditions, Astraceae family, petri dish, seed germination thermostat, medicinal plants, medicinal properties, immunity*

### KIRISH

Bizga ma'lumki, qadimdan dorivor o'simliklar kimyoviy preparatlardan farqli ravishda, inson organizmi uchun zararsiz asosiy dori vositalari bo'lib kelgan. Dorivor o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar va mikroelementlar inson va hayvonlarga keng qamrovli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, organizmlarni kasalliklardan forug' bo'lishiga yordam beradi. Shu sababli, dorivor o'simliklar hayvon va odamlarning yuqumli va yuqumsiz kasalliklarini davolashda keng qo'llaniladi.

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan doridarmonalarning qarib 40-47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi.

Butun dunyoda va xususan yurtimiz O'zbekistonda ham dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda va bu o'z o'rnila qator islohatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi hoda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qaroriga binoan foydali va shifobaxsh o'simlikni Respublikamizda yanada kengroq ko'lamda o'stirish tadbirlari ko'zda tutilmoqda.

Respublikamiz iqlim va tuproq sharoitlarida qizil exinatseya o'simligini o'stirish va undan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Qizil exinatseya juda qadim zamonlardan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda qo'llanilgan. Qizil

exinatseyadan ayniqsa Amerika va Yevropa xalq tabobatida keng foydalanilgan. Bulardan tashqari MDX davlatlari Rossiya va Unraina mamlakatlardi bu o'simlikdan sanoat miqyosida foydalaniladi. Exinatseya preparatlari organizm immun sistemasini yaxshilashda, moddalar almashinuvini buzilishida, ayniqsa qandli diabet kasalliklari va jigar xastaliklarini davolashda hamda havo, suv, oziq ovqatlaardan va zaharli ximikatlar ta'sirida zaharlanishdan kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish va davolashda ishlataladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib dorivor Exinatsiya o'simligini o'sish - rivojlanish xususiyatlarini Surxondaryoning janubiy hududi xisoblangan Termiz tumani sharoitida o'rganishni maqsad qildikva bu ishni dastlab urug' unuvchanligini labaratoriya sharoitida o'rganishdan boshladik.

**Ishning maqsadi:** Exinatsiya (*Echinacea purpurea* L. Moench)ning urug' unuvchanligini laboratoriya sharoitida o'rganish.

**O'rganilayotgan obekt:** Exinatsiya - *Echinacea turkumi* Asteraceae yoki Compositae oilasiga mansub ko'p yillik qimmatbaho dorivor o'simlik hisoblanadi. Exinatseya turkumi 5 ta turni o'z ichiga olib, bu o'simlik turlar tik o'suvchi, ko'p yillik ildizpoyali o'simlik xisoblanadi. Ularni balandligi 1-1,5 m gacha yetadi. Gullari yirik binafsha rangli.

Exinatseya - *Echinacea purpurea* - Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 80 dan 180 sm gacha yetadigan ko'p yillik o'simlik. Poyasi to'g'ri, tik o'suvchi nisbatan kam tarvaqaylaganligi bilan boshqa turlardan qisman jaralib turadi. Barglari yirik: pastki barglari keng lansentsimon, uzun barg bandida joylashgan; yuqori barglar uchki qismi nisbatan toraygan, o'tkir uchli. Gullar yirik, gul boshlari uzunligi 1,5-3 sm, eni-5-10mm. ni tashkil etadi. Exinatseya urug'lari va vegetativ ko'payadi.

**Tadqiqot usullari : urug' unuvchnligi** – o'simlikning biologik va iqtisodiy jihatdan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unuvchanlik ko'rsatkichlari labaratoriya va dala tajribalarida o'rganiladi. Urug'larning unuvchanlik ko'rsatkichi B.Y.To'xtayev va T.X.Maxkamov metodi asosida amalga oshirildi. Bu metodga ko'ra petri chashkasida distirlangan suv bilan namlangan 2 qavatli filtr qog'oz qo'yiladi va 100 dona o'rganilayotgan o'simlik urug'lari joylashtirilib labaratoriya sharoitida 4 marta takrorlanishlar asosida o'rganiladi. Tajribani o'rganish uchun Termiz davlat Universiteti tabiiy fanlar fakulteti labaratoriya xonasda amalga oshirildi.

**Olingan natijalar:** Exinatsiya urug'lari unuvchanligi asosan past xisoblanadi. Chunki uning qattiq qobig'i bunga qarshilik qiladi. Shu sababdan oddiy sharoitda tajriba olib borilganda urug'ning umumiy unuvchanligi 67.7 % ni tashkil etdi.

( 1-jadval)

Ekish vaqtি	Uru g'so	Tak 1	O'sib chiqqan urug'lar soni	umumiy
-------------	-------------	----------	-----------------------------	--------

			<b>2 kun</b>	<b>3 kun</b>	<b>4 kun</b>	<b>5 kun</b>	<b>6 kun</b>	<b>8 kun</b>	<b>10kun</b>	<b>12 kun</b>	
18.02.2022	100	1	1	3	7	11	16	14	8	6	66
18.02.2022	100	2	2	3	8	12	15	13	9	5	67
18.02.2022	100	3	1	4	9	13	17	15	6	5	70
18.02.2022	100	4	2	3	8	12	15	14	7	7	68
<b>O'rtacha</b>											<b>67.7%</b>

O'simlik urug'lari unuvchanligi labaratoriya sharoitida 25°C dan oshmagan harotatda maxsus termostatda o'rganildi.

**Xulosा:**

1. Dorivor o'simliklardan xisoblanga Exinatsiya urug'lari qattiq qobiq bilan qoplangan shu sababli urug'lar yaxshu unuvchanlikni namoyon qilishi uchun ularni stratifikatsiya qilib ekish yaxshi natija beradi.
2. Exinatsiya urug'larini unuvchanligi laboratoriya sharoitida 67.7% ekanligi unuvchanlik uchun yaxshi ko'rsatkich sanaladi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4785256>
2. Ховрин, А. Бочарова С., Мадуфурова С. Интродукция эхинацеи пурпурной в условиях Ульяновской области //Материалы III Международной научно-производственной конференции «Интродукция нетрадиционных и редких сельскохозяйственных растений». – Пенза, 2000. – Т.1 – С.285-286
3. Анищенко, Л. В. Шишлова Ж.Н. Интродукция эхинацеи пурпурной [Echinacea purpurea(L.)] Moench в Ботаническом саду ЮФУ. // Вестник ВГУ, серия: химия, биология, фармация. – 2009. – №2. – С. 89–94.
4. М.О'.Olloyorov , Е.Т.Axmedov qizil exinatseya itiqbolli shifobaxsh o'simlik. Toshkent 2021, 5 bet.
5. Симонович, Е.И. Влияние удобрений на содержание некоторых тяжелых металлов и биологическую активность в черноземе обыкновенном при возделывании эхинацеи пурпурной (Echinacea purpurea Moench.) //Фундаментальные исследования – 2012. – №9 – С. 69-72
6. Шараевская, И.М. Шараевская, Н.В. Садовников, К.С. Применение эхинацеи для стимуляции иммунитета у кур, подвергнутых вакцинации штамом H5 N1 //Аграрный вестник Урала. – 2010. – №12(79). – С. 37-38.